

# Yangi Kia Sorento



Movement that inspires



# Yangi Kia Sorento.

Yangi Sorento o'zining dadil, dinamik qiyofasi bilan faqat e'tiborni tortibgina qolmaydi. U tabiatning kuchi va donoligidan foydalangan holda, yanada ongli ravishda sayohat qilish imkoniyatini taqdim etadi



# To'siqlar oldidagi qo'rquvdan holilik

Avtomobil orqa qismining dizayni uyg'un va ko'rkamdir. Vertikal orqa chiroqlar Sorentoga, ayniqsa tunda, yanada chiroyli ko'rinish bag'ishlaydi. Qora rangdagi diffuzerli bamperdagi qoplama krossoverning amaliyligi va to'siqlarni yengib o'tishga tayyorligini ta'kidlaydi.







Siz uchun yaratilgan salon



Interyeri odmi va bo'rttirilgan gorizontaal zonalashtirilishga egadir. Salon dizaynining muhim elementi - bu barcha displeylar integratsiyalangan katta panoramali ekrandir. Displeylar grafikasi yanada chiroyli va ko'rish uchun qulayga aylandi. Boshqaruv elementlari intuitiv tarzda tushunarli joylashtirilgan, ularga yetishish qulay bo'lib, chalg'ituvchi faktorlar minimaldir. Salonda toza, silliq shakllar va liniyalardan tuzilgan makon yaratilgan bo'lib - bular o'zingizni xotirjam tutishga, fikrlaringizni o'tkir va aniq saqlashga yordam beradi.

# Hech narsa nazardan chetda qolmaganda

Texnologiyalar ba'zan bizga tasavvur qilganimizdan ham ko'proq yordam beradilar. Yangi Sorentodagi haydovchining interfeysi gorizontali yo'naltirilgandir, uning keng bo'lgan barcha funksionali esa idrok etish uchun qulay va oddiy tarzda tashkil etilgan. Shunday oddiy ko'rinishdagi odmilik avtomobilni yanada mulohazali, qulayroq va xavfsiz boshqarish imkonini beradi



## Panoramik qayrilgan monitor

Integratsiyalangan qayrilgan ekran chiroyli bo'libgina qolmay - u haydovchiga e'tiborni ma'lumotlarga to'liq qaratish imkonini beradi. Yuqori sifatli keng formatli tasvirlar ma'lumotlarning xatosiz aniq ko'rinishini ta'minlaydi.



### Raqamli ko'zgu

Tomning orqa spoylerida o'rnatilgan kameradan uzatiladigan tasvir, avtomobilning orqa tomonidagi ancha kengroq hududni to'xtovsiz ko'rish imkonini beradi. Bunda kun yoki tun bo'lishidan va ob-havo sharoitlaridan qat'l nazar. Oddiy "optik" rejimga o'tish, ko'zgu quyi qismidagi o'zgartiruvchini o'tkazish orqali oson amalga oshiriladi.



### O'zgartirish tugmasi

"Multimedia"/ "Iqlim nazorati". Foydalanish qulayligi va samaradorligi kontrollarning "Multimedia" va "Iqlim nazorati" rejimlari o'rtasida almashtirish imkoniyati bilan ta'minlanadi.



## Hech kim siqilib qolmaydi

Gap materiallar va pardoqlanishning sifati haqidami, yoki o'rindiqlarning ishonchligi yoki jihozlanishning puxta o'ylanganligi haqidaligidan qat'i nazar - Yangi Sorento, sayohatlardagi qulaylik darajasini yangi cho'qqilarga olib chiqadi . Yangi Sorentoda har bir kishiga yon tomondan qo'llab-quvvatlanuvchi qulay joylashuv imkoniyati taqdim etilgan. Keng, yorug' va amaliy interyer har bir sayohatni yanada yoqimli qiladi. Go'zallik nafaqat avtomobil derazalaridan tashqarisida - u uning ichki qismida ham mavjud. Go'zallik sizni o'rab turgan hamma narsada mavjuddir.



### Simsiz zaryadlash paneli

Rezina bilan qoplangan simsiz zaryadlash paneli markaziy konsolga joylashtirilgan bo'lib, mos keluvchi smartfonlarni tezda zaryadlash imkonini beradi.



### Dam olish funksiyasiga ega birinchi qator o'rindiqlari

Agar transmissiya selektori Park holatida bo'lsa, haydovchi va old yo'lovchi Relaxation funksiyasini faollashtirishlari mumkin: old o'rindiqlar vaznsizlik holatidagiday yotish mumkin bo'lgan holatga o'tkaziladi. Hatto oyoqlar uchun ham qo'shimcha tayanch ko'zda tutilgan.

# Har qachongidan ham mehmondo'stroq

Yangi Sorento sizni avtomobilga o'tirishingizdan oldin kutib olishga tayyorgarlik ko'radi. O'rindiqlar avtomatik tarzda suriladi, yukxonasining eshigi esa siz unga yaqinlashganda ochiladi. Bularning barchasi hayotingizni oson va qulayroq qilish uchun mo'ljallangan.



## **Yukxona eshigi elektr privodi**

Smart key bilan avtomobilning orqasida tursangiz, bir necha soniyadan so'ng yukxona avtomatik ravishda ochiladi. Orqa eshik ko'tarilishi balandligini qulay tarzda sozlashingiz mumkin.



### **Ergo Motion haydovchi o'rindig'i**

Ichida yettita havo bo'linmasi bo'lgan ergonomik o'rindiq haydash paytida haydovchining qulayligini ta'minlaydi.



### **Yo'lovchilarni joylashuvini osonlashtirish tizimi**

Old yo'lovchi o'rindig'ining chap yon tomonida joylashgan tugmani oddiy bosish orqali haydovchi orqa o'rindiqni bir vaqtning o'zida katlab uni vaqtincha oldinga siljitishi mumkin. Bu yo'lovchilarga orqa qator o'rindiqlarga o'tirishlari yoki aksincha, avtomobildan tushishlari uchun qulaylik yaratadi.

# Kuchli. Boshqariluvchan. Dinamik.

Yangi Sorento vaqt sinovidan o'tgan dvigatellar va optimal sozlamalarga ega transmissiyalar bilan jihozlangan. U yo'lda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday qiyinchilikni yengishga tayyor. Tormozlanishi ishonchli va mukammal nazoratga ega, yangi podveska yurishning ideal maromlilikini ta'minlaydi. Sorentoning dinamikasi sizning kutganingizdan ham ko'proq darajada ortiq bo'ladi.





# Har qanday vaziyatga tayyor

Sorento harakatlanishning boshlanishidan to avtomobilni parkovkaga qo'yishingizgacha sizning xavfsizligingizni ta'minlaydi. Datchiklar va yuqori texnologiyali xavfsizlik va haydovchiga yordam tizimlari (ADAS) xavf-xatarlarni oldindan bilish va ularni oldini olish uchun ishlaydilar. Shuningdek, ular sayohat paytida, masalan, tezkor trassada yoki tor parkovka joyiga kirishda sizga ishonchli yordam beradilar.





### Drive Mode haydash rejimlarini tanlash

Aylantiriluvchi almashtirilish kalitini yengil burish orqali mos rejimni tanlang. Mavjud rejimlar: COMFORT, ECO, SPORT va intellektual o'rganish algoritmgiga ega va sizning haydash uslubingizga moslasha oladigan SMART.

### Terrain mode rejimlarini boshqarilishi

SNOW, MUD va SAND rejimlari turli xil yuzalarda eng maqbul yopishishni ta'minlaydi. Rejimlar qurilmalar paneli va multimedia tizimining displeyida aks ettiriladi.

### Yo'l sharoitlariga moslashish tizimi (Terrain Mode Select)

Yangi Sorento jihozlangan Terrain Mode to'liq privod ish rejimlarini tanlash tizimi, qor, loy yoki qum kabi yo'l qoplami bilan yomon ulanishli muhitda harakatlanishni xavfsiz va ishonchli bo'lishi uchun butun quvvat agregati va transmissiya ishini ta'minlaydi.

#### SNOW rejimi\*

To'liq privod tizimi silliq, qorli yo'llarda tortishuvni optimallashtirib orqa g'ildiraklarga yuboriadigan quvvatni tartibga soladi.

#### MUD rejimi \*

Loyli yo'llarda g'ildiraklardan biri sirpanganda, tizim eng yaxshi yopishqoqlikga ega g'ildiraklarga avtomatik ravishda tortish kuchi yetkazilishini oshiradi

#### SAND rejimi \*

Old va orqa o'qlar o'rtasida quvvatni, shuningdek, qumli yuzalardagi alohida g'ildiraklardagi aylantiruvchi moment va tormozlanish kuchini avtomatik taqsimlash

\* SNOW — qor, MUD — loy, SAND — qum



### Proyeksion displey 10"

Haydash haqidagi eng muhim ma'lumotlar haydovchining ko'zlari qarshisidagi old oynaning pastki qismidagi proyeksion displeyda aks etiriladi – siz istalgan paytda ma'lumotlarni yo'ldan chalg'imasdan o'qishingiz mumkin.



## Hushyorlikni doimiy saqlab

Yangi Sorento hushyorlikni saqlashga va harakatlanish jarayonida nazoratni yo'qotmasligingizga yordam berib, xavfsizligingizni ta'minlash uchun ADAS texnologiyasining so'nggi avlodidan foydalanadi. Datchiklar boshqa transport vositalari va piyodalargacha bo'lgan xavfsiz masofani saqlashga va kutilmagan vaziyatlarga real vaqtda javob berishga yordam beradi.

SCC intellektual kruiz-nazorati oldingizda harakatlanayotgan avtomobilgacha bo'lgan xavfsiz masofani va siz o'rnatgan tezlikni saqlashga yordam beradi. Agar oldingizda harakatlanayotgan transport vositasi sekinlashsa va vaqtincha to'xtab qolsa, Sorento avtomatik ravishda to'xtab, so'ng harakatlanishni boshidan davom ettiradi.



### Harakatlanish bo'lagida harakatlanish yordamchisi (LFA)

Buning uchun frontal kameradan foydalanib, razmetka yoki oldindagi harakatlanayotgan avtomobilga moslashib avtomobilni tanlangan yo'l bo'lagining o'rtasida ushlab turishga yordam beradi, shuningdek, rul boshqaruvi yordamida kerakli pozitsiyani saqlashga yordam beradi.



### Avtomobilning ko'rinmas zona tomondan to'qnashuvini oldini olish tizimi (BCA)

Yo'l bo'lagini o'zgartirishda ko'rinmas zonangizda bo'lgan boshqa avtomobil bilan to'qnashuv xavfi haqida ogohlantiradi. Parallel to'xtash joyidan chiqishda, u avtomatik ravishda yordamga keladi va orqa tomondan yaqinlashayotgan transport vositasi bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, favqulodda tormozlanishni amalga oshiradi.




### **Frontal to'qnashuvni oldini olish assistenti, tizimning ikkinchi avlodi - FCA2**

Atrof-muhitni nazorat qiladi va avtomobilingiz oldidagi boshqa transport vositasi, piyoda yoki velosipedchi bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, ogohlantirish signalini beradi. Agar xavf darajasi pasaymasa, FCA 2 avtomatik ravishda tormoz tizimini faollashtiradi. FCA 2 shuningdek, chorrahada chapga burilish paytida yoki o'ng yoki chap tomondan ko'ndalang yo'nalishda harakatlanayotgan avtomobil bilan to'qnashuv xavfini aniqlanganda, favqulodda tormozlanishni faollashtiradi. Yo'l bo'laklarini almashtirishda, harakatning trayektoriyasida qarama-qarshi bo'lakda kelayotgan transport vositasi, velosipedchi yoki piyoda yoki orqadan yaqinlashib kelayotgan boshqa avtomobil bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, FCA 2 xavfni oldini olish uchun rul boshqaruvi ishiga ham avtomatik ravishda aralashadi.



### To'xtash joyiga ort bilan kirishda to'qnashuvning oldini olish assistenti (PCA)

Ort bilan harakatlanishda avtomobil orqasidagi ob'ekt bilan to'qnashuv xavfi mavjud bo'lsa, ogohlantirish signalini beradi. Agar shunday ogohlantirishdan keyin to'qnashuv xavfi oshsa, favqulodda tormozlanishni avtomatik ravishda faollashtiradi.



### Aylanasiga ko'rish tizimi SVM

Xavfsiz parkovkalanish uchun avtomobil atrofidagi muhit ko'rinishining turli burchaklarini ekranga chiqarishga imkon beradi.

# Optsiyalar



Proyeksion yorug'liodli faralar




Yorug'liodli orqa chiroqlar



Qora rangli radiator panjarasi



Orqa oynadagi yashirin oyna tozalagich



Premium-toifadagi 12 ta dinamikli Bose®



Birinchi qator o'rindiqlar orqa qismidagi qo'shimcha USB zaryadlovchi quрилmalar



Haydovchi o'rindig'ining sozlamalar xotirasi



Pedallarda/eshik bo'sag'alardagi metall qoplamalar



Tugmani bir marta bosish orqali soddalashtirilgan ikkinchi qatorga kirish tizimi



Uchinchi qator o'rindiqlari uchun konditsioner



Ikkinchi qator o'rindiqlari uchun quyoshdan himoya qiluvchi pardalar



Uzatmalarni almashtirish rulosi "yaproqlari "

# Ranglar

## Ko'zyovning ranglari



Clear White (UD)



Snow White Pearl (SWP)



Steel Gray (KLG)



Silky Silver (4SS)



Interstellar Gray (AGT)



Gravity Blue (B4U)



Cityscape Green (CGE)



Volcanic Sand Brown (BN4)



Mineral Blue (M4B)



Aurora Black Pearl (ABP)

## Gabarit o'lchamlari (mm)



1900



925

2815

1075

4815



1695

## G'ildirak diskilari



Yengil qotishmali disklar 18"



Yengil qotishmali disklar 19"

Kia Sorento

Taraqqiyotning yangi darajasini sinab ko'ring



Batafsil ma'lumotga [kia.uz](http://kia.uz) rasmiy saytida ega bo'ling

Barcha ma'lumotlar va illyustratsiyalar chop etish vaqtida mavjud ma'lumotlarga asoslangan. Kompaniya oldindan ogohlantirishsiz o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Uskunalarining to'liq ro'yxati va qo'shimcha ma'lumotlarga Kia dilerlari bilan bog'lanish orqali ega bo'lishingiz mumkin.

\* 5 yillik yoki 150 000 km masofalik kafolat [kia.uz](http://kia.uz) sayti va avtomobilning xizmat ko'rsatish kitobida ko'rsatilgan shartlar asosida amal qiladi.

\*\* Ba'zi elementlarni bezatish uchun tabiiy va sun'iy teri kombinatsiyasidan foydalanish mumkin.

Avtomobilning tashqi ko'rinishi reklamada ko'rsatilganidan farq qilishi mumkin.

